



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY TA'LIM-TARBIYA: MUAMMO VA YECHIMLAR

Muxtorova Madinaxon Alijon qizi
Farg'ona davlat texnika universiteti
Yangil Sanoat va to'qimachilik fakulteti
O'zbek tili va tillarni o'rgatish kafedrası
Ingliz tili assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda boshlang'ich ta'limda zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishdagi mavjud muammolar, ularning sabablari hamda samarali yechimlari yoritilgan. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, innovatsiya, zamonaviy metodlar, tarbiya, texnologiya, kompetensiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные проблемы организации современных образовательных процессов в начальном образовании, причины их возникновения и эффективные пути решения. Анализируется важность повышения профессиональной компетентности педагогов, внедрения цифровых технологий и использования интерактивных методов.

Ключевые слова: начальное образование, инновации, современные методы, воспитание, технологии, компетентность.

Abstract: This dissertation examines current issues in organizing modern educational processes in primary education, their causes, and effective solutions. It analyzes the importance of enhancing teachers' professional competence, implementing digital technologies, and using interactive methods.

Keywords: Primary education, innovation, modern methods, education, technology, competence.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni, uning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va ijtimoiy faolligini shakllantirishni talab etadi. Boshlang'ich ta'limda bu bosqich ayniqsa muhim, chunki bu davrda bolaning bilimga bo'lgan qiziqishi va irodasi shakllanadi. Shu sababli o'qituvchining zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishi ta'lim-tarbiya sifatini belgilovchi asosiy omildir.

Asosiy qism. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda bir qator muammolar mavjud:

- an'anaviy dars usullarining ustunligi;
- o'quvchilarning individual qobiliyatlari va qiziqishlarini yetarli hisobga olmaslik;
- raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish darajasining pastligi;

- tarbiya jarayonida oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

1. O‘qituvchilarning malakasini oshirish: zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar bo‘yicha muntazam treninglar o‘tkazish.
2. Innovatsion metodlardan foydalanish: CLIL, STEAM, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning), “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Rol o‘ynash” kabi interfaol usullardan foydalanish.
3. Raqamli vositalarni joriy etish: “LearningApps”, “Kahoot”, “Quizizz”, “Wordwall” kabi platformalar yordamida dars samaradorligini oshirish.
4. Tarbiya jarayonida hamkorlikni kuchaytirish: o‘quvchi, o‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasida ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish.

Xulosa. Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy ta‘lim-tarbiya metodlarini tatbiq etish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, yangilikka intilishga va ijtimoiy faol bo‘lishga undaydi. O‘qituvchi innovatsion yondashuvni o‘z faoliyatiga joriy qilgan taqdirdagina ta‘lim sifati oshadi va yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston maktab o‘qituvchisi” konsepsiyasi. – Toshkent, 2023.
3. G‘afforova, T. (2022). Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.